

## JAMOAT TRANSPORT YO'NALISHLARINING MURAKKABLIK DARAJASINI BAHOLASH

*Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi*

*Toshkent davlat transport universiteti*

*MEUVi-4 magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shahar jamoat transportida yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatishni baholash mezonlari keltirilgan. Jamoat transportida xizmat ko'rsatishning asosiy mezoni sifatida yo'lovchilarning yo'lda harakatlanish uchun sarflagan vaqtlari va uni tashkil etuvchilari olingan. Bu mezonlar asosida yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatish parametrlari asoslangan.

**Kalit so'zlar:** Jamoat transporti, faoliyat, serbis, harakatlanish, tizim.

### KIRISH

Avtobuslarda yo'lovchilarni tashishni rejalashtirish asosan, butun shaharning har bir harakat yo'nalishida kutilayotgan yo'lovchilarni tashish hajmini asoslashni, yo'nalishlar bo'yicha o'rtacha harakatlanishni belgilash va tashishga bo'lgan talabni to'liq qondirishni hisobga olgan holda kutilayotgan yo'lovchilar oborotini aniqlashlarni o'z ichiga oladi. Avtobuslar ishini rejalashtirish, shuningdek, har bir avtokolonna, har bir haydovchi kesimida avtotransport korxonasi uchun ekspluatatsion ko'rsatkichlari hisoblanishini ham talab qiladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Harakatni tashkil etish yo'lovchilar oqimlarini taqsimlanish qonuniyatlarini aniqlash va yo'lovchilar harakat manzillarini, harakat yo'nalishlari tizimini va uni optimallashtirishni, yo'nalishlar bo'yicha avtobuslarni samarali taqsimlashni, avtobuslar tezliklarini me'yorlashtirish, haydovchilar mehnatini tashkil etishning ratsional tizimini tanlash va butun harakat yo'nalishi bo'yicha avtobuslarining harakat jadvallarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Rossiyalik olimlar A. V. Velmojin, V. A. Gudkov, A. V. Kulikov va A. A. Serikovlar o'z tadqiqotlarida transport vositasi va harakat tarkibining turi, yo'l kira haqining miqdori, yo'lovchilarni tashish tezligi, tashish jarayonining jadalligi kabi ko'rsatkichlarni tashishni tashkil qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida hisobga oladigan shahar yo'lovchi transporti ishini samaradorligini baholovchi nazariya va uslublarni ishlab chiqqanlar [4].

Vetnamlik olim Dang Xay Le tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda harakat yo'nalishlarini tarmoqlarini shakllanish usullari, harakat yo'nalishlarining umumiy sxemalari, ularning muqobil variantlarining tahlillari, almashinuvsiz qatnovlarda yo'lovchi yuklarni maksimal darajaga keltirish asosida harakat

yo‘nalishlarining ratsional majmuasini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Buning natijasida shaharlardagi umumfoydalanuv transportiga bo‘lgan talabni bashorat qilish, avtobuslarning harakat yo‘nalishlarini tartibga solish, yo‘lovchi transportini boshqarish samaradorligini oshirish manbalari va asosiy omillari aniqlangan [5].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Harakatni boshqarish yo‘lovchilarga avtobuslarda yuqori sifatli tashish xizmat ko‘rsatgan holda harakatni tashkil etish bo‘yicha belgilangan rejani samarali bajarishga qaratilgan, markazlashtirilgan nazorat va harakatni ratsional tashkil etish yo‘li bilan pirovard maqsad bo‘lgan tashish jarayonini ta‘minlaydi.

Rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik harakat tarkibidan samarali foydalanilgan holda yo‘lovchilarga o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli tashish xizmatini ko‘rsatishni ta‘minlashga qaratilgan tashish jarayoni texnologiyalarining yagona maqsadi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish jarayonida ekspluatatsion faoliyatni baholashning va transport xizmatlarining tatbiq etilishi, ularning holati va sifat darajasini tahlil qilishi orqali barcha bosqichlar hamda tashish jarayonlarining tashkil etilish bosqichlarida qabul qilingan qarorlarning asoslanganlik darajalarini aniqlash imkoniyatini beruvchi yagona mezon belgilanadi.

Shaharlarda avtobus transporti orqali ko‘rsatiladigan xizmat sifati quyidagilar bilan aniqlanadi: yo‘lovchilarni manzillariga o‘z vaqtida yetkazib borish; to‘xtash bekatlariga kelish uchun sarflanadigan vaqt va avtobusni kutish hamda boshqasiga almashish vaqtlarni ham hisobga olgan holda harakatlanish uchun sarflanadigan vaqt; harakatlanish komfortligi (qulaylik, o‘tirib ketish uchun joylarning mavjudligi, avtobus salonining to‘lish darajasi va boshqalar).

Yo‘lovchilarni manzillariga o‘z vaqtida yetkazib qo‘yish tashish jarayonining ishonchliligi bilan bog‘liq bo‘ladi va harakat yo‘nalishlarida avtobuslar harakati muntazamligini ta‘minlashga bog‘liq.

Tashish jarayonining ishonchliligi bir qancha omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga dastavval quyidagilar kiradi: avtobus konstruksiyasining ishonchliligi; avtobuslarning yo‘nalishlarga to‘liq va o‘z vaqtida chiqarilishi; avtobuslarni harakat yo‘nalishlaridan texnik nosozlik va boshqa sabalar bilan avtokorxonaga qaytib kelmasligi; haydovchilarning malakasi; yo‘l sharoitining holati va h.k.

Yo‘lovchilarning yo‘lda harakatlanish uchun sarflagan vaqtlariga quyidagilar kiradi: yo‘lovchilarning jamaot transporti bekatlariga yetib kelish vaqti; avtobusni kutish vaqti; harakatlanish vaqti; manzilga yetib olish vaqti; boshqa avtobusga almashish vaqti.

Bu parametrlarni me‘yorlashtirish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Rossiyalik olim M.L. Blatnov tomonidan taklif etilgan me'yorlar bo'yicha harakat yo'nalishlarida yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatishning kritik qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan [1,2].

1-jadval Shaharlarda avtobus transportida yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatish sifati me'yorlari

№	Me'yorlashtirilgan ko'rsatkichlar	Shahar aholisining soni		
		1,0 mln.dan ko'p	250 mingdan 1,0 mln.gacha	250 mingdan kam
1.	Manzilga yetish vaqti, daq.dan ko'p bo'lmagan	40	30	20
2.	Jumladan:			
	JYT bekatigacha yetib kelish vaqti, daq.	5	4	3
	Avtobusni kutish vaqti, daq.	3	3	2
	Harakatlanish vaqti, daq.	21	17	10
	Avtobusdan almashish vaqti, daq.	4	3	2
	Manzilga borish vaqti, daq.	4	3	2
3.	Harakatlanishning o'rtacha masofasi, km	7,0	5,0	3,3
4.	JYT bekatiga yetib borishning o'rtachamasofasi, m	330	280	200

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, avtobuslarda yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatishning sifat darajasini baholash mezonlari ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Bu omillaresa tadqiqot olib borilayotgan aholi punkting transport rejalashtirish holatidan kelib chiqadi va shahar jamoat transporti ishini rejalashtirishdaularni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Blatnov M.D. Yo'lovchi avtomobil transporti. M.: Transport 2011.-222 b.
2. GOST R 51006-96 Rossiya Federatsiyasining davlat standarti transport xizmatlari atamalar va ta'riflar.
3. "Namunali marshrut"ni baholash bo'yicha ko'rsatmalar. Toshkent., TADI - 2013.-11 b.

4. Velmojin A. V. va boshqalar. Shahar yo'lovchi jamoat transporti samaradorligi: Monografiya / A. V. Velmojin, V. A., Gudkov, A. V. Kulikov, A. A. Serikov;

5. Volgograd, shtat. texnologiya. un-t. - Volgograd, 2012. - 256 p.

6. Рашидов, Д. (2022). НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАР ЖАМИЯТЛАРИ ТАСАРРУФИДАГИ КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.

7. Dang Xai Le Umumiy shahar yo'lovchi transportining rivojlanishi: Ханой, Vetnam misoli. Diss. Cand uchun. texnika fanlari M.: 2010.181 b.